



UDK:193.4(575.1)

*Qaxramon ALMANOV,*  
*Guliston davlat universiteti dotsenti*  
*E-mail: almanov20111988@gmail.com*

*O'z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d. G'.Boboyorov taqrizi asosida*

### CHUBAR ELI OF JIZZAKH AND ITS BRIEF HISTORY

Annotation

In this article, data from statistical collections and ethnographic expeditions related to ethnic history of the population of the region from the middle of the 19th century to the beginning of the 20th century of the Chubar village of the Jizzakh oasis are scientifically analyzed through the method of historical and comparative research.

**Key words:** Chubar village, Yailov O'damali and Kara village, Molguzar foothills, Takirluk, Novka, Chirqar, Yangikurgan, Altai, Solokoy Sharlik top, Bokkishi top, Telpakboy top.

### ЧУБАР ЭЛИ ДЖИЗАКСКИЙ И ЕГО КРАТКАЯ ИСТОРИЯ

Аннотация

В данной статье с помощью метода исторические и сравнительные исследования.

**Ключевые слова:** Село Чубар, село Яйлов Одамали и Кара, предгорья Молгузара, Такирлок, Новка, Чиркар, Янгикурган, Алтай, вершина Солокой Шарлик, Мяч Боккиси, мяч Тельпакбой.

### JIZZAXNING CHUBAR ELI VA UNING QISQACHA TARIXI

Ushbu maqolada Jizzax vohasining Chubar qishlog'ining XIX asrning o'rtalaridan boshlab, mintaqa aholisining XX asr boshlaridagi etnik tarixi masalasiga oid statistik to'plamlar va etnografik ekspeditsiyalardagi ma'lumotlar tarixiy-qiyosiy tadqiqot usuli orqali ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Chubar qishlog'i, Yaylov O'damali va Qora qishloq, Molguzar tog' etagi, Taqirloq, Novqa, qirqlar, Yangiqo'rg'on, Oltoy, So'loqoy Sharlik to'p, Boqkishi to'pi, Telpakboy to'pi.

**Kirish.** Sangzor daryosining o'rta oqimi va uning o'ng va so'l tamoni joylashgan Chubar qishlog'i tarixi masalasida olib borgan tadqiqotlarimizga ko'ra bu ko'hna qishloq aholisi XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugungi o'zlari yashab turgan qishloqlariga kelib o'rnatish boshlashgan. Mintaqa aholisining XX asr boshlaridagi etnik tarixi masalasiga oid vohada bo'lgan rossiyalik sayyohlarning asarlari, xususan, statistik to'plamlar va etnografik ekspeditsiyalardagi ma'lumotlarda bu qishloq to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar saqlanib qolgan. Chubar qishlog'i Jizzax vohasining Baxmal tumanida joylashgan, shonli tarixga ega geografik hudud. Chubar hududida yashayotgan aholining mashg'ulotlari chorvachilik bo'lib bunda aholi asosan uy chorvachiligi bilan shug'ullanishgan. Bu chorvador aholi yashaydigan qishloqda 92 bovli o'zbek urug'laridan bo'lgan qirqlar va uning qo'ra qo'ly bo'lagining bir tarmog'i bo'lgan va qishloq nomiga aylangan, chuborliklar yashashadi. Bu chorvador qavmlar voha hududlariga kirib kelish tarixi Shayboniyxon nomi bilan bog'liqligi bugungi kunda o'z isbotini topganligi ma'lum. Bu qishloqning bunday nomlanishining ham o'ziga xos va sirlari bor. Bu qishloqning nomlanishiga keladigan bo'lsak uni ayrimlar "Chubar", "Chipor", "Chibor", "Chibar" kabi nomlar bilan atashadi. Aslida bu nomlarning hammasi bir ma'noni bildiradi. Qadimiy turkiyda (o'zbekchada) chorvadorlarning asosiy ulovi bo'lgan otlarning bir turi ya'ni asli ko'kish ustiga rangli yo'l-yo'l xol tushgani chibor deb aytilgan. Shuning uchun chuborliklar "Chubar" so'zi "Chibarak" ot nomidan olingan yoki chibarak oti bor odamlar yashaydigan degan ma'noni bildiradi deb ishonishadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi Chubarliklarning asosiy turmush tarzidan biri bu chorvachilik hisoblangan. Ushbu davrda aholining ko'pchiligida katta miqdorda chorva mollari

mavjud. Umuman olganda, Jizzax vohasi chorva mollarning soni bo'yicha Turkistonda eng yirik hududlardan biri, hatto qo'ylarning soni bo'yicha Samarqand viloyati uездlarining ichida eng katta hudud va mayda shoxli chorva soni bo'yicha ham oldingi o'rinda turgan[1]. Chorvadorlarning yaylov tutish holatlarini ham o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan bo'lib yaylovlarning bir qancha, yozgi, qishgi turlari vohada mavjud bo'lgan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, yozgi yaylovlar bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajargan. Birinchidan, chorvasi bor aholi uchun yozgi qarorgoh vazifasini o'tagan bo'lsa, ikkinchidan, chorvalar uchun yaylov vazifasini o'tagan. Shuningdek, ushbu hududlar jamoa uchun foydalaniladigan yer jumladan, xirmon joy vazifasini, ya'ni aholi dalalardan yig'ilgan hosillarini vaqtincha ushbu hududda saqlab turgan[2]. Bu kabi Chubor va uning atroflaridagi qishloqlarda voha qirqlari yaylovlardan asosan o'zlarining chorvasini boqish uchun foydalanishgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uездining Yangi Qo'rg'on volostida bunday turdagi 5 ta yaylov hududlari mavjud bo'lgan. Jumladan, birinchi yaylov O'damali va Bushquruq qishloqlari yaqinida joylashgan bo'lib, mazkur hudud Baybul Buloq, Katta-Buloq, Oqchag'al va O'rta Buloq degan joylar bilan chegaradosh bo'lgan va maydoni 980 desyatinni tashkil etgan. Yaylov O'damali va Qora qishloq aholisi tomonidan jamoaviy tarzda avloddan avlodga o'tish orqali egalik qilingan, foydalanilgan hamda ta'sarruf etilgan. Bu vaqtda hozirgi Chubar qishlog'i o'rnida uy xo'jaliklari bo'lmagan asosan 5-10 kishi o'zlarining chorvasini qishloq atroflarida aylantirib boqishgan. Yangi Qo'rg'on (bugungi G'allaorol tumani) tadqiqot olib borgan N.Virskiy kuzatuvlari va tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yaylovning tabiiy chegaralari daralar bilan belgilangan hamda mayda chashmalar yonida bo'lgan. Bunday chashmalar atrofidagi aholi maskanlaridan misol qilib O'damali qishlog'i tarkibidan ajralib chiqqan yangi Oqchag'al

qishlog'ini ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Bu kabi qishloqlar atrofidagi yaylovda 1,5 desyatinalik bedapoya, ikkita jamoaviy tarzda foydalanadigan quduq, 4 ta yozgi masjidlar, bir nechta suvloqlar (chorva mollarini sug'oradigan joy) va mayda buloqlar mavjud bo'lgan. Ushbu hudud 40 yildan ortiq vaqt davomida O'dumali qishlog'ining 94 ta xonadoni va Qora qishloqning 77 ta xonadoni uchun yaylov va qo'ton (qo'ylarning umumiy qamaladigan joyi) vazifasini o'tagan. Bu turdagi yaylov va qo'tonlar atrofida bir ikkita qo'shxonalarda ham mavjud bo'lgan bo'lib bu qo'shxonalarda cho'pon va uning oilasi istiqomat qilishgan. Ushbu hudud ya'ni Chubor va uning atroflari asosiy qismining tuproqlari lalmikor dehqonchilik uchun qulay bo'lgan bo'lsa-da, bu chorvalar uchun yaylov va qo'ton uchun yagona joy hisoblanganligi uchun jamoa aholisi ushbu yerlarda boshqa aholining dehqonchilik qilishiga yo'l qo'ymagan. N.Virskiy o'zining kuzatuv ishlariga asoslanib, ushbu hudud qadimdan avloddan avlodga o'tish orqali yuqorida nomlari keltirilgan qishloq aholisi tomonidan egalik qilinayotganligi, foydalanilayotganligi va tassarruf etilayotganligini aytib o'tadi[3]. Ikkinchi yaylov dalasi Molguzar tog' etagida, Chubar qishlog'i hamda ushbu qishloqdan ajralib chiqqan Toqli qishlog'ida joylashgan hamda Chubar qishlog'iga qarashli 82 xonadonining chorva mollari uchun yozgi yaylov vazifasini bajargan. Ushbu yaylov deyarli 1200 desyatini maydondan iborat bo'lib, soy va buloqlar yonlarida Chubar qishlog'iga qarashli qo'rg'onchalar, ikkita yozgi masjid, qo'ylar uchun qurilgan ko'plab qo'tonlar va buloqlar, qishloq aholisi tomonidan qurilgan bir necha suvloqlar mavjud bo'lgan. O'sha davrdagi mahalliy aholi va tevarak-atrofdagi yashovchi aholining aytishiga qaraganda, ushbu maydon qadimdan avloddan avlodga o'tish orqali Chubar va unga qarashli Toqli qishloqchasi aholisi tomonidan egalik qilingan, foydalanilgan va tassarruf etilgan hamda mollarni o'tlatish va yozgi yaylovni yagona hudud sifatida saqlab qolish maqsadida boshqa qishloq aholisining lalmikor dehqonchilik qilishga yo'l qo'ymagan[4].

Aholi o'rtasida hunarmandchilik va zarduzlik sohasi rivojlanmagan. Faqatgina har bir oilaning ehtiyojiga loyiq "Taqirloq" Julpat, sholcha, olacha, ot va tuya eshak anjomlari (Jun va paxtadan) urchuq yordamida iplar iyirilgan (yigirilgan) o'rmak deb ataladigan maxsus vosita yordamida asosan ayollar o'tlatishgan. Yog'ochsozlik (egar jabduq yasash) sohasida faqatgina 2 ta oila vakillari shug'ullanishgan halos. Egar jabduq yasash asosan qo'shni qishloq bo'lgan Novqada yaxshi rivojlangan aholi asosan buyurtma qildirib hunarmandlarga yasatishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadjiriylik, tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Chubar qishlog'i kichik geografik hududda joylashgan bo'lishiga qaramay aholisi asosan Qirq urug'ining eng katta tarmoqlaridan bo'lgan qoraqo'ylilardan tarqalgan deb hisoblashadi. O'z o'rnida bu qishloqning atrofidagi O'damali, Qoraqishloq, Xoltoy, Toqli, Oqchag'al qishloqlarida ham qoraqo'yli bo'lagining shu nomlar bilan ataladigan bo'laklari istiqomat qilishgan bu nomlar dastlabki vaqtlarda urug'ning to'plari ma'nosida bo'lgan bo'lsa vaqt o'tishi natijasida aholi manzilgoxi ya'ni etnotoponimga aylangan. Bu qishloqlarda yashayotgan aholi sonining muntazam tabiiy ko'payishi natijasida aholi o'zlarining yetti otasi bir bo'lgan o'ziga xos to'plarini tuza boshlashadi. Ayniqsa bu kabi holatlar tadqiq qilayotgan Chubar qishlog'i va chuborliklarda yaqqol saqlanib qolgan. Bu yonma-yon joylashgan qishloqlardagi yashayotgan Qirqlar to'g'risida

ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lib biz uning ayrimlarini keltirib o'tishni lozim topdik. Qirqlar – XX asrning boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Jizzax vohasidagi eng yirik o'zbek urug'i bo'lib, ularning 20.000 dan oshiqroq qismi Yangiqo'rg'on, O'smat qatortol, Sangzar, Qoratosh volostlarida istiqomat qilishgan[5]. Vohada yashovchi yashovchi qirqlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar so'ngi o'rta asrlarda yaratilgan bir qancha mualliflarning asarlarida eslatib o'tilgan. Ularning soni jami 20 ming kishidan oshiq ekanligi vohada asosan ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanganligi takidlanib o'tilgan[6]. Ularning kelib chiqishi to'g'risida turli tuman fikrlar yuradi ularning etnik tarkibidagi bo'linishlari to'g'risida rus tadqiqotchilari va mahalliy tadqiqotchilar bir qancha fikrlarni bildirib o'tishgan. Bu urug' vakillari vohaga kelgan vaqti aniq emas turli tahminlar keltirib o'tilgan shunday fikrlardan birini rus tadqiqotchisi Radlov undan so'ng A.Grebinkin, N.Virskiy shuningdek N.Aristov ham bu urug' to'g'risida bir qancha fikrlarni bildirib o'tishgan. N.M.Virskiyning keltirib o'tishicha Sangzor daryosi bo'ylariga qirq, yuz, saroy, nayman kabi qabilalarning kelib joylashishi Abdullaxon nomi bilan bog'liq bo'lgan ular XVI asrdan ko'chib kelib o'rnasha boshlagan[7].

Ularning fikrlarini va dala tadqiqotlarimizni umumlashtirib voha qirqlari yettita katta guruhga: ya'ni

qoraqo'yli,

qoracha,

moltop-mulkush,

chaprashli,

chortkesar,

to'qchora,

chuvilloqqa bo'lingan degan ma'lumotlar bermoqchimiz.

Bu urug'ning ichidagi bo'laklar o'z navbatida turli to'plarga va shoxlarga bo'linib Jizzax uezdining Yangiqo'rg'on (G'allaorol) volostida jami 1920-yildagi ma'lumotga ko'ra 13 ming[8] 1926-yildagi ma'lumotlarga qaraganda 20 ming atrofida yashab asosan yarim chorvador va o'troq hayot kechirgan bo'lgan. Bugungi Jizzax viloyatining asosan G'allaorol, Baxmal shuningdek qisman Jizzax va Zomin tumanlarida bu urug' vakillarining biz aniqlaganimiz jami 40 dan oshiq to'plarga bo'linib yashab kelishmoqda[9]. Ularning ayrimlarining to'pining nomi joy nomiga etnotoponimga aylanganiga guvoh bo'ldik. Masalan, kuya bosh, ko'kgumbaz, qirq, sug'unboy, to'q chura, quyonquloqli, qashqabuloq, uch qiz, keshkovut, o'damali, oqchag'al, qora, chibar, xoltoy, tang'ili, qoracha, chuvulloq, moltop, sovruk, muqri, kariz, cho'rtkesar, soylik, qoraqo'yli, o'gat, uyvli, qirq qishloq kabilar bularni yana davom ettirish mumkin. Ular asosan o'troq dehqonchilik va dashtlar atroflarida chorvador tarzda hayot kechirganlar. Jizzax vohasi joy nomlarini tadqiq qilishimiz jarayonida hududdagi ko'pchilik etnotoponimlar asosan ko'chmanchi chorvador tarzda yashagan aholi hayotida saqlanib qolganligiga guvoh bo'lamiz[10]. Bu kabi etnonimlar bilan bog'liq bo'lgan qishloqlar tarixi to'g'risida yozma manbalar va aholining keksa axbarotchilari bergan og'zaki ma'lumotlarga ko'ra Qo'raqo'yli bo'lagidan bo'lgan bir boyning 4 o'g'li bo'ladi ularga otalari bir suruv chorva va odamlarni berib o'zlarining qishloqlarini tashkil qilishni buyuradi. Katta o'g'liga Chipor boychibor ot berib seni qishlog'ing nomi Chibor bo'lsin keyingi o'g'liga Qora ot berib sening qishlog'ing nomi Qora bo'lsin, yana bir o'g'liga kichikroq xoli bor toy berib qishlog'ing Xoltoy bo'lsin yana bir o'g'liga esa chorva berib o'z nomini ya'ni O'damboy nomini berib qishlog'ing nomi O'damali bo'lsin deb takidlagan degan afsonalar yuradi xalq orasida. Misol uchun "Alp Manash" dostonida Boybaroq haqida quyidagi so'zlar keladi.

Bar-choqur atqa mingen

Baybaraq degeen baatir jurtudu.

Tarjimasi:

Ola-chipor otga mingan

Boybaroq degan botir yashadi.

Bu termada ham ot bilan bog'liq yoki uning rangi bilan bog'liq holatlar keltirib o'tilganiga guvoh bo'lamiz. Xoltoy "Oltoy" so'zining etimologiyasi xususida o'zbek xalqining qipchoq urug'lari rivoyatlari va matallarida ham ayrim haqiqatga yaqin versiyalar uchraydi. Surxondaryo va Qashqadaryo etnik o'zbeklarida "Oltoy olti oyliq jo'lda" degan ibora saqlanadi. Shuningdek, mahalliy aholi og'zaki ijodiyotida saqlangan termalarda qo'yidagi jumlar uchraydi: "Olti oyliq jo'limov, adog'i jo'q cho'limov, borib-qoytar joylovim, oynalayin Oltoyim, bir oynalib qoytayin". Bunda "borib-qoytar joylov" chovadorlarning yil bo'yi chorvalarni o'tlatish hududlarini anglatadi. Demak bunda shu narsa bilanadiki bu nom ham ot bilan bog'liq bo'lib xalqning og'zaki axbarotida saqlanib qolgan ma'lumotlar haqiqatga yaqin keladi. Shuningdek, voha toponomiyasi bo'yicha yirik mutaxassis Q.Hakimovning ham tadqiqotlarida shu va shunga o'xshash ma'lumotlar keltirib o'tilgan[11]. Ma'lumki, 92 bovli o'zbek urug'larlari nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Ularning eng qadimiylarining nomlanishi masalasida turli talqinlar bor bo'lib ularning aksariyatida inson uchun do'st bo'lgan yoki ko'makchi ro'lini bajargan jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar yani urug'ning totemi hisoblanganlari eng tarixiydir. Bunday etnonimlarning paydo bo'lishi bevosita diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lib voha hududlaridagi etnoo'konimlar majusiylilik shomonizm bilan aloqador holda paydo bo'lgan degan qarashlar borligini kuzatamiz. Ma'lumki har bir urug' va qabilalarning muqaddas hayvonlari (totemi) bo'lib, odamlar o'zlarini shu hayvonlardan tarqalgan, — yoki bevosita shu hayvonlar bilan aloqador bo'lgan yoki homiy sifatida qarab kelish holatlari kuzatiladi. Vohadagi jilonli (ilonli), jilontamg'ali (ilon-tamg'ali), qulon, oqbura, qorabura (bura-buvra-bug'ra – bichilmagan erkak tuya), qarq'a, shag'al (shaqal-chiyabo'ri), echki, taka, xo'kiz, tuya, ot, bo'ri etnonimlari shular jumlasidandir[12]. Shuningdek, hayvon a'zolarining nomlari tuyoqli, so'loqli, chorva bilan bog'liq, erganak (erganakli), yoki inson ismi bilan bog'liq bo'lganlari ergash, jo'ldosh, yori, eshim, ham urug' yoki to'p nomiga aylanib etnonimiga aylangan. Hayvon nomlari va boshqa chorva bilan bog'liq tarzda atalgan etnonimlar ba'zan shu urug' ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin. Voha etnonimlari orasida urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan etnonimlar ham ko'pchilikni tashkil etgan. (achamayli, oshamayli, qo'shtamg'ali, bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli, qirg'ili) Qishloqda aholi sonining o'sib borishi natijasida aholi etti otasi bir bo'lganlar alohida to'plarga bo'linish holatlari keyingi davrlarda ko'payadi. Bularga misol qilib quyidagi to'plarni keltirib o'tamiz.

1. So'loqoy to'pi yoki So'loqoy devonbegi to'pi (bunday nomlanishiga keksa axbarotchilarning o'z shajaralari to'g'risidagi aytgan axbarotlariga ko'ra Buxoro amirining qo'shinida xizmatda bo'lgan Chap qo'lli gavdasi ulkan odam) dan tarqalganlar degan ilmiy asosga ega bo'lmagan qarashlari bu to'p vakillari orasida so'ngi paytlarda o'ylab topilgan[13].

Aslida So'loqoy so'loq nomli o'zak so'zdan tashkil topgan bo'lib bu so'zning bir necha ma'nosi ma'lum – 1) qora jigjar, taloq; 2) qo'y-echki qulog'ining biron joyini kesib yem solish, tamg'alash usullaridan biri – quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, oldingi so'loq, keyingi tomoni o'yib kesilsa keyingi so'loq deyilgan; 3) aravaning o'qiga solinadigan temir. Shuningdek, so'loqli – yuz qabilasining tarmoqlaridan birining nomi ham shunday ataladi. Bizningcha bu to'pning bunday nomlanishiga So'loq so'zi chova bilan bog'liq so'z bo'lib to'pdagi oy so'zi to'pning tamg'asi shakli bo'lgan bo'lsa kerak yani, So'loqoy chorvasining qulog'iga oy shaklidagi en yoki tamg'asi bo'lgan odamlar shu nom bilan to'y marakalarda aytilgan bo'lsa kerak.

2. Sharlik to'p bu to'pning keksa vakillari bergan axbarotlarga ko'ra shaharlik yoki, bu qishloqdan yani Chubordan yiroqda uzoqroqda hayot kechirib kelgandan tarqalganmi deya atashadi o'zlarini. Aslida bu so'z ham chorva bilan bog'liq bo'lib en va tamg'asi shakli shar yoki aylana ko'rinishda bo'lgan bo'lsa kerak.

3. Boqkishi to'pi bu to'p vakillari o'zlarini yot kishi yoki baxil kishidan tarqalganmi deya takidlashadi buning sababi sifatida bularning kuli bir joyda bo'lmasin deb qarq'alganmi, natijada, bizlar bir joyda yig'ilsak janjal chiqadi, shuning uchun bular baxil yoki bu urug'danmas yot kishilardan deb boqkishi deb nomlangan deydi Tugal Ho'rozov.

4. Telpakboy to'pi bu to'p ham Chuborning eng kichkina bir bo'laki hisoblanib asosan bosh kiyimsiz yurmaganlar yoki telpakli odamdan tarqalganlar deya takidlashadi uzlarini. Mazkur hududda yashagan aholining ananaviy urf-odatlari bir – birdan farq qilmagan. Vaqt o'tishi bilan urf-odatlarni barcha etnoslar o'zlashtirib, bajarishgan. Bu qishloqda barcha aholi oltoy til oilasining turkiy til turkumidagi qipchoq lahjasida, j lov chi shevada so'zlashadi. Dehqonchilik, chorvachilik va qisman bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida o'zaro tavar ayirboshlash XX asrning so'ngi choragida ancha kuchaydi bu vaqtlarda bu qishloq aholi soni ko'payib o'zlarining to'plariga mansublari gox majburiy gox ixtiyoriy ravishda o'tgan asrning birinchi yarmiga kelib yangi yerlarga ko'chib kela boshlashgan va o'zlarining to'plari yoki urug'larlari nomlari bilan ataladigan aholi maskanlariga asos solishgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shundan iboratki, doimiy ravishda chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan ayrim urug'lar, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholidan dehqonchilik sirlarini o'zlashtirib, dehqonchilikda yuqori natijaga erishmoqda. E'tiborli tomoni shundaki mazkur kichik geografik hududda bir urug' vakillari istiqomat qiladi, ular o'rtasida doimiy, o'zaro, maslaxatlashuvlar avlodlar uchrashuvlari o'tkazilib kelinadi. Barcha oqsoqol, keksa nuroniylar boshchiligida to'y, bayram, sayillarni maslahat oshi bilan boshlab, xursandchilik bilan yakunlashadi. Bugungi kunga kelib Chubor nomli aholi maskanlari vohaga tutash hududlardagi bir qator tumanlarda mavjudligi ham bu qishloqning tarixiyligi va o'ziga xos o'tmishga egaligidan dalolatdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Рассудова Р.Я. Хозяйство Каттакурганского уезда Самаркандской области в конце XIX – XX в. // Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. - Ленинград, 1973. - С. 150
2. Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск X. – Самарканд, 1912. – С.25.
3. Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск X. – Самарканд, 1912. – С.25.
4. Всесоюзный перепись населения 1926 г. т. XXV. Узбекская ССР. ЦСУ. СССР. – М., 1928. – с. 145-149
5. Алманов Қ. XIX аср охири XX аср бошларида Жиззах воҳаси этномаданий муҳитида қирқ ва қанғиллар. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7434293>
6. Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области. // Справочная

7. книжка Самаркандской области. Вып. X. – Самарканд, 1912. – Б. 4-5.
8. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 1. Бухара. Т.,1926,с.203
9. Алманов Қ. XIX аср охири XX аср бошларида Жиззах воҳаси этномаданий муҳитида қирқ ва қанғлилар. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7434293>
10. Алманов Қ. XIX аср охири XX аср бошларида Жиззах воҳаси этномаданий муҳитида қирқ ва қанғлилар. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7434293>
11. Ҳақимов Қ. Жиззах вилояти топонимлари /Жизза х - 2014 .«Сангзор», 204 бет.
12. Қораев С.Топономика дарслик Т. 2003 йил,б.169-171.
13. Мирзо Р. Сўлокой девонбеги шажараси Т.2013 йил.



UDK:347.72032(091)

*Mamasabir ISMATOV,*

*O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi, rezervdagi podpolkovnik*

*E-mail: ismatovsobirjon00@gmail.com*

*O'zMU professori, tarix fanlari doktori A.Yermetov taqrizi asosida*

## RESERVE AND RESERVE PERSONNEL TRAINING SYSTEM UNDER THE MINISTRY OF DEFENSE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

In this article, the author justified the powers of the state bodies of the armed forces of the Republic of Uzbekistan in the field of defense, the procedure established by national legislation in the field of training reserve and reserve personnel in the system of the Ministry of Defense, the procedure for conscription of reserve and reserve officers.

**Keywords:** Reserve, Ministry of Defense, military service, security, district, headquarters, State Committee, military department, cycle, course, officer.

## СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ЗАПАСА И РЕЗЕРВА ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье автор обосновал полномочия государственных органов вооруженных сил Республики Узбекистан в области обороны, порядок, установленный национальным законодательством в сфере подготовки кадров запаса и резерва в системе Министерства обороны, порядок осуществления призыва на военную службу офицеров запаса и резерва.

**Ключевые слова:** Резерв, запас, Министерство обороны, военная служба, безопасность, округ, штаб, Госкомитет, военная кафедра, цикл, курс, офицер.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI HUZURIDA ZAXIRADAGI VA REZERVDAKI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI

Аннотация

Muallif mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Mudofaa sohasida davlat organlarining vakolatlari, Mudofaa vazirligi tizimida zaxiradagi va rezervdagi kadrlar tayyorlash sohasida milliy qonunchilikda belgilangan tartiblar, zaxiradagi va rezervdagi ofitserlarni harbiy xizmatga chaqirishni amalga oshirish tartib qoidalarini asoslab bergan

**Kalit so'zlar:** Rezerv, zaxira, Mudofaa vazirligi, harbiy xizmat, xavfsizlik, okrug, shtab, davlat qo'mitasi, harbiy kafedra, sikl, kurs, ofitser.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunning asosiy mazmun va mohiyatida e'tiborimiz qaratib o'tishimiz lozim. Mazkur qonunning asosiy vazifasi mudofaani tashkil etishning hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) boshqarishning huquqiy asoslarini belgilaydi, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab berishdan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Mudofaa sohasida davlat organlarining vakolatlari, Mudofaa vazirligi tizimida zaxiradagi va rezervdagi kadrlar tayyorlash sohasida milliy qonunchilikda belgilangan tartiblar, zaxiradagi va rezervdagi ofitserlarni harbiy xizmatga chaqirishni amalga oshirish tartib qoidalarini asoslab bergan.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha hisobot davrida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

– Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar va kundalik faoliyatini boshqarish markazi, Markaziy harbiy okrug situatsion markazi, boshqa harbiy okrug va qo'shilmalarning qo'mondonlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi;

– mamlakat hududi himoyasining vazifalarini hal etishda kuch tuzilmalari bo'linmalarining yaqin hamkorligini ta'minlash maqsadida jangovar tayyorgarlik tadbirlari jadalligi o'rtacha 1,5-2 baravarga oshdi, hamkorlikdagi kuch tuzilmalari bilan 73 dan ortiq birgalikdagi taktik, operativ miqyosdagi turli o'quvlar va tadbirlar o'tkazildi va boshqa ishlar amalga oshirildi[5].

**Tahlil va natijalar.** Jumladan, mazkur qonunda mudofaa sohasidagi davlat organlarining ham vakolatlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, 8-moddada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni:

O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

Davlat boshqaruv organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta'minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;



Qurolli Kuchlarni qurish, qo'llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo'ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi;

harbiy harakatlar olib borish to'g'risida, shu jumladan xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish to'g'risida, shuningdek Qurolli Kuchlarni o'zlariga bevosita taalluqli bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etish to'g'risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda:

O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi;

harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sonini, ularning harbiy va muqobil xizmatni o'tash tartibini, harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni harbiy hisobga olish ishining yuritilish tartibini, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyojlari uchun qurol-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalarining normalari hamda hajmini belgilaydi hamda qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshiradi.

O'z navbatida, qonunda Vazirlar Mahkamasining, Mudofaa vazirligining, Qurolli Kuchlar Bosh Shtabi, harbiy okuruglar, vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy davlat hokimiyat organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan. Qonuning 10-moddasida Mudofaa vazirligining vakolatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'z tasarrufidagi qo'shinlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

Mudofaa vazirligi tizimida zaxiradagi va rezervdagi kadrlar tayyorlash sohasida bir nechta milliy qonun hujjatlari qabul qilingan. Masalan, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilda 12 sentyabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida" Nizom hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risida" gi Nizom asosiy qonun hujjatlari bo'lib hisoblanadi.

Avvalo, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun xususida so'z yuritsak. Mazkur Qonunning 16-moddasida oliy ta'lim muassasalarida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tartibi belgilangan. Unga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining talabalari orasidan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash mazkur muassasalarda tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida (harbiy ta'lim fakultetlari, harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv markazlari, harbiy kafedralar, sikllar va kurslarda) amalga oshirilishi belgilangan.

Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limida o'qiyotgan erkak talabalari, shuningdek tibbiy oliy ta'lim muassasalarining talabalari jinsidan qat'iy nazar harbiy tayyorgarlikdan o'tadilar hamda harbiy tayyorgarlikka yigirma yetti yoshgacha bo'lgan salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli talabalar jalb qilinishi ko'rsatilgan.

Talabalarni harbiy tayyorgarlikdan o'tishga qabul qilish ularning shaxsiy arizalariga binoan ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Harbiy xizmatni o'tab kelgan talabalar ham rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar ta'limi dasturi bo'yicha harbiy tayyorgarlikdan o'tishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv bo'linmalarida harbiy tayyorgarlikdan o'tgan, ta'lim dasturini o'zlashtirgan va belgilangan davlat imtihonlarini topshirgan talabalar ularga leytenant unvoni berilganidan keyin haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar yoki rezerv yoxud zaxiraga o'tkaziladilar.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv bo'linmalarida harbiy tayyorgarlik ta'limidan o'tmagan talabalar ta'lim muassasasini tamomlaganlaridan keyin ushbu Qonunga muvofiq muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun chaqiriladilar.

Ofitserlarni tayyorlash dasturlarini oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv bo'linmalari yo'nalishi, rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlashda asoslaniladigan ixtisosliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, agar bu ta'lim muassasalari bazasida harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv bo'linmalari tashkil etilgan bo'lsa, mazkur ta'lim muassasalarining aniq maqsadli moliyalashtirilishini amalga oshiradi hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining ko'magida zarur o'quv-moddiy bazasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi talabalarining harbiy tayyorgarligi ustidan nazoratni, harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv bo'linmalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari lavozimlariga ofitserlarni oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan kelishilgan holda tanlash va tayinlashni amalga oshiradi. Harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv bo'linmalarining o'qituvchiliga va boshqa lavozimlarga harbiy xizmatchilarni tayinlash oliy ta'lim muassasalarining rektorlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv bo'linmalarining harbiy lavozimlariga tayinlangan harbiy xizmatchilar harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan kafolatlardan va imtiyozlardan foydalanadilar[4].

Demak, ushbu normadan ma'lumki, zaxiradagi rezervdagi kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarda tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida (harbiy ta'lim fakultetlari, harbiy tayyorgarlik bo'yicha o'quv markazlari, harbiy kafedralar, sikllar va kurslarda) amalga oshiriladi. Bunda talabalar o'z arizalari asosida belgilangan tartibda jalb qilinadi. Ularning ixtisosliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'z navbatida, o'quv bo'linmalarida harbiy tayyorgarlik ta'limidan o'tmagan talabalar ta'lim muassasasini tamomlaganlaridan keyin ushbu Qonunga muvofiq muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun chaqirilishi bevosita ko'rsatib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Zaxiradagi ofitserlarni harbiy xizmatga chaqarish yuqoridagi keltirilgan qonunning 23-moddasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu normada qirq yoshgacha bo'lgan, muddatli harbiy xizmatni, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tamagan va ushbu Qonunning 21-moddasiga muvofiq chaqirilish muddatini kechiktirish asoslariga ega bo'lmagan ofitserlar tinchlik davrida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrug'iga binoan ofitserlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun chaqirilishlari mumkinligi ko'rsatilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida

zaxiradagi va rezervdagi kadrlar tayyorlash tizimi mudofaa sohasidagi davlat organlari tomonidan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilda 12 sentyabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida" Nizom hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risida" gi Nizom asosida olib boriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabrdagi 436-II-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilda 12 sentyabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida" Nizom;
3. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risida" gi Nizom.
4. <https://lex.uz/>
5. <https://strategy.uz/index.php?news=770&lang=uz/>



*Azizbek NAZAROV,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b*  
*E-mail: azizbek\_888@mail.ru*

*T.f.f.d.(PhD) M.Darmonova taqrizi asosida*

### ANALYSIS OF THE FUND OF THE TASHKENT BRANCH OF THE IMPERIAL SOCIETY OF ORIENTAL STUDIES (BASED ON THE FUND NA UZ I-361)

Annotation

In this article, 13 cases from the I-361 fund, stored in the National Archives of Uzbekistan of the Tashkent branch of the Imperial Society of Oriental Studies, were analyzed from the point of view of archival source research. Correspondence was also carried out about the opening of the society, information about Russian-native schools, the activities of language courses, living quarters and conditions were studied, and an analysis of archival documents relating to minutes of meetings and publishing was carried out.

**Key words:** The Turkestan General-governorate, Tashkent, Eurasia, Russian Empire, National Archive of Uzbekistan, fund, file, archive, madrasah, archival source study, document, letter, charter, protocol.

### АНАЛИЗ ФОНДА ТАШКЕНТСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ ИМПЕРАТОРСКОГО ОБЩЕСТВА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ (НА ОСНОВЕ ФОНДА НА УЗ И-361)

Аннотация

В данной статье были проанализированы с точки зрения архивного источниковедения 13 дел из фонда И-361, хранящегося в Национальном архиве Узбекистана Ташкентского отделения Императорского общества востоковедения. Также была проведена переписка об открытии общества, информация о русско-туземных школах, о деятельности языковых курсов, изучены жилые помещения и условия, проведен анализ архивных документов, касающихся протоколов собраний и издательского дела.

**Ключевые слова:** Туркестанское генерал-губернаторство, Ташкент, Евразия, Российская Империя, Национальный архив Узбекистана, фонд, дело, архив, медресе, архивное источниковедение, документ, письмо, устав, протокол

### IMPERATORLIK SHARQSHUNOSLIK JAMIYATI TOSHKENT BO‘LIMI FONDI TAHLILI (O‘ZMA I-361 FONDI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo‘limining O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanuvchi I-361-fondidagi 13 ta yig‘majild arxiv manbashunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyat ochilishiga oid yozishmalar, rus-tuzem maktablari haqidagi ma‘lumotlar, til kurslari faoliyati, aholi yashaydigan xonadonlar va sharoitlar o‘rganilishi, yig‘ilish bayonnomalaridagi masalalar hamda nashr ishlariga oid arxiv hujjatlari tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston general-gubernatorligi, Toshkent, Yevrosiyo, Rossiya imperiyasi, O‘zbekiston Milliy arxivi, fond, yig‘majild, arxiv, madrasa, arxiv manbashunosligi, hujjat, xat, nizom, bayonnoma.

**Kirish.** Turkiston general-gubernatorligida tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar avvalo o‘lkada Rossiya imperiyasi davlatchiligini targ‘ib etish va mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelgan. Markaziy va mahalliy imperiya amaldorlari ilmiy jamiyatlarni birlamchi vazifasi sifatida rus davlatchiligi manfaatlarini ta‘minlashdan iborat deb bilishar edi. Bunda ular avvalo mahalliy aholi o‘rtasida rus tili va madaniyatini targ‘ib qilish orqali imperiya uchun sodiq fuqarolar qatlamini vujudga keltirishni ko‘zlashar edi. Qolaversa, rus hukumatining o‘lkadagi ma‘muriy boshqaruvi ham O‘rta Osiyo haqida iloji boricha tezroq ilmiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishga qiziqardi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo‘limi ham bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo‘limi tarixini tadqiq etilishiga to‘xtalar ekan, tarixshunos B.V. Lunin: “Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo‘limi taqdiri ham turkistonshunoslik bilan shug‘ullangan boshqa jamiyatlarga o‘xshash bo‘lgan u umuman unutilgan bo‘lib, jamiyat haqidagi adabiyotlar faqatgina ma‘lumotlar bilan chegaralangan”[1], deb ta‘kidlaydi.

N.A. Mustafayeva o‘z monografiyasida ilmiy jamiyat faoliyatini quyidagicha baholaydi: “Mustamlaka ma‘muriyati tub aholining diniy va maishiy hayoti bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy tanishuvga erishish, musulmon diniy idoralari faoliyatini to‘liq o‘rganish maqsadida Islom diniga oid ko‘pgina manbalarni rus tiliga tarjima qilish ishlarini amalga oshirdi. Bu ishlar mahalliy tilni chuqur bilgan N.I. Grodekov, M.A. Terentyev, V.P. Nalivkin, N. Likoshin, A. Kunn va boshqa rus sharqshunoslari tomonidan bajarilgan. Ammo bu qimmatli adabiyotlar ma‘muriyatdagi mansabdorlarni u darajada qiziqirgan emas”[2].

Turkistonda faoliyat yuritgan ilmiy jamiyatlarning arxiv fondlaridan ayrim tadqiqotlarda manbaviy turkumlashirish masalalariga qisman e‘tibor qaratilgan. Ammo jamiyatlarning arxiv fondlari bugungi kunga qadar hujjatshunoslik, arxivshunoslik va arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan kompleks tadqiq qilinmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy jamiyatlar nizomiga ko‘ra jamiyat Turkiston general-gubernatori boshqaruvida bo‘lgan hududlarni har tomonlama o‘rganishga bo‘lgan harakatlari aks etgan hujjatlar arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan o‘rganildi. Chunki jamiyat o‘z faoliyati davomida Imperiya davlatchiligini targ‘ib etish va mustahkamlash uchun



ko'plab ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. Ushbu hujjatlar yaxlit tarixiy tadqiqot sifatida shakllanmagan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sharqshunoslikka oid fond hujjatlarini tahlil etish bo'lganligi sababli, arxivda saqlanayotgan sohaga doir yig'majildlar tashqi va ichki tahlil uslubida o'rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limining faoliyati aks etgan ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivi I-361-fondida saqlanadi. Fondga 1901 yil 14 martda tuzilgan bo'lim faoliyatiga doir hujjatlar jamlangan bo'lib, unda 1917 yilgacha ya'ni bo'lim o'z faoliyatini tugatgunga qadar ma'lumotlar mavjud. Bo'lim faoliyati asosan o'z a'zolari yig'ilishida turli ma'ruzalarni tashkillashtirish va olib borishdan iborat bo'lgan[3]. Fondga jamiyatning Nizomi, bo'limni tashkil etish masalasi bo'yicha Sharqshunoslik jamiyati va o'lka ma'muriyati bilan yozishmalar, bo'limning yig'ilish bayonnomalari, yillik hisobotlari va sharq tillarini o'rganishga doir ma'lumotlar bor. Shuningdek bo'lim faoliyati hisoboti, til kurslari islom, vaqf, sharq tillari va boshqa masalalarga oid ilmiy izlanishlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, I-361 fondida 1901–1917 yillar, ya'ni jamiyat faoliyat yuritgan davrga doir hujjatlar mavjud. Jami 13 ta yig'majildan iborat. Ular bir ro'yxatga kiritilgan. Fondagi saqlov birliklari 1 dan 13 gacha tartib raqamlari bilan belgilangan bo'lib, literli (harf bilan belgilangan) saqlov birliklari mavjud emas.

Fondagi birinchi raqamli yig'majild (jami 29 varaq) Sharqshunoslik jamiyatini tashkil etish va sharqshunoslik masalalariga oid asarlarni nashr qilishga oid bo'lib, tarkibida Imperatorlik sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limining ochilishi haqidagi (ko'chirib olingan) hujjat, Yevgeniy Matseyvskiy, N.P. Ostroumov xatlari, xullas Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limidan jo'natilgan va qabul qilib olingan xatlar bor[4].

Fondagi ikkinchi raqamli yig'majild (jami 49 varaq) Jamiyatning tashkil etilishi haqida va nizom deb nomlanib, tarkibida N.K. Shvedovning Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskoyga xati, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati (ofis)ning tashkil etilishi va Toshkentda bo'lim ochilishi haqida hujjat, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati (ofisi) nizomi, V.F. Oshanin tomonidan yozilgan ma'lumotnoma, Toshkent bo'limi ochilishi to'g'risida, Jamiyat nizomiga sharh, Toshkent bo'limi a'zolari ro'yxati va imzosi (xabar olganliklari to'g'risida), Turkiston general-gubernatorining N.K. Shvedovga xati, Jamiyat ochilishi haqida hisobot xati, Toshkent bo'limining dasturi, Nizom va a'zolar ro'yxati, xabarnoma, xatlar va yozishmalar bor[5].

Fondagi uchinchi raqamli yig'majild (jami 291 varaq) rus-tuzem maktablarida rus tili kurslarini tashkil etilishi haqida deb nomlanib, tarkibida xatlar, kvitansiyalar, yig'ilish bayonnomalari, o'qituvchilarning dars o'tganliklari uchun pul olganliklari to'g'risida tilxatlar, rus-tuzem maktablari haqida ma'lumotnoma, kechki rus tili kurslari haqida ma'lumotnoma, Turkiston general-gubernatorligi haqidagi maqolalar to'plami, N.K. Shvedovning Toshkentda tillarni o'rganuvchi oliy o'quv yurti ochish haqidagi xati, Kaspiyorti viloyatidan Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi kutubxonasiga kitob jo'natganligi to'g'risida ma'lumotnoma, Toshkentda ochilishi rejalashtirilgan sharq tillari instituti loyihasi nizomini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan komissiya yig'ilishi bayonnomasi, Kechki kurslar hujjatlari, rus-tuzem maktablarining ochilishi haqidagi hujjatlar, hisobot, xat va yozishmalar bor[6].

Fondagi to'rtinchi raqamli yig'majild (jami 10 varaq) Jamiyat yig'ilishlari bayonnomalari, mahalliy aholi o'rtasida bilimlarni tarqatish haqida deb nomlanib, tarkibida xabarnoma (1904 yil 5 oktabr kuni jamiyatning yig'ilishi haqida), Jamiyatning 1904 yil 27 noyabrdagi yig'ilish bayonnomasi,

Yagelloning "Vechniye kursi dlya vzroslix tuzemnego" maqolasi va boshqa xatlar bor[7].

Fondagi beshinchi raqamli yig'majild (jami 101 varaq) xatlar, yozishmalar va hokazolar deb nomlanib, tarkibida Turkiston harbiy topografiya bo'limi boshlig'ining YE.O. Matsevskiyga kartalar haqidagi xati, Ayollar rus tuzem maktablarining hisoboti, Toshkent shahridagi erkaklar va ayollar o'quv yurtlari ma'lumotlari, Turkiston general-gubernatori devonxonasi Yagello moliyaviy masaladagi xat, maktab madrasalar to'g'risida ma'lumotnoma, Kechki kurslarda o'qigan mahalliy talabalar haqida ma'lumot, ariza va boshqa xatlar bor[8].

Fondagi oltinchi raqamli yig'majild (jami 43 varaq) bayonnomalar deb nomlanib, tarkibida Til kurslari haqida ma'lumotlar, qoralama asl nusxadagi bayonnomalar mavjud.

Fondagi yettinchi raqamli yig'majild (jami 2 varaq) N.P. Ostroumovning K.K. Ivanovga Rossiya uchun musulmon masalalarining ahamiyati haqidagi ma'ruzasi deb nomlanib, tarkibida ushbu ma'ruza keltirilgan.

Fondagi sakkizinchi raqamli yig'majild (jami 17 varaq) vaqf masalalari bo'yicha yozishmalar deb nomlanib, tarkibida vaqfga oid adabiyotlar haqida, nashriyotdan xat, moliyaviy masala, bayonnoma nusxasi va boshqa shu kabi ma'lumotlar bor.

Fondagi to'qqizinchi raqamli yig'majild (jami 60 varaq)da til kurslari haqida ma'lumotlar deb nomlanib, tarkibida kechki kurslar haqida ma'lumotlar, islomshunoslik bo'yicha Toshkent harbiy yig'inida o'qilgan ma'ruzalar ro'yxati va ma'lumotlar, kitoblar almashinuvi to'g'risida ma'lumot, xabarnomalar va yozishmalar bor[9].

Fondagi o'ninchi raqamli yig'majild (jami 15 varaq) Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati (ofis) bilan N.P. Ostroumov yozishmalari deb nomlanib, tarkibida Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati N.P. Ostroumovdan O'rta Osiyoda islom dini bo'yicha Turkiston general-gubernatorligida nashr qilingan materiallardan nusxalar jo'natishini so'ragan xat, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati N.P. Ostroumovga kitoblar yuborganligi uchun minnatdorchilik xati, qoralama ariza va xatlar bor[10].

Fondagi o'n birinchi raqamli yig'majild (jami 5 varaq) "Mir islama" jurnalini nashr qilish bo'yicha yozishmalar deb nomlanib, tarkibida "Mir islama" jurnalini tashkil etish va uning tuzilishi haqidagi hujjat, N.P. Ostroumovga "Mir islama" jurnaliga chiqqan maqolalar uchun qalam haqi (75 rubl) to'lovi haqidagi hujjat, hamda N.P. Ostroumovning javob xatlari mavjud[11].

Fondagi o'n ikkinchi raqamli yig'majild (jami 2 varaq) Vestnik va Vostokovedeniya haqida deb nomlanib, tarkibida N.P. Ostroumovning N.K. Shvedovga xati, hamda jurnalning birinchi 9 ta sonini Toshkentga yuborilishi[12] haqidagi hujjatlar bor.

O'n uchinchi raqamli yig'majildda esa (jami 4 varaq) Yevroosiyo xalqlarining kelib chiqishiga oid oriy nazariyasi haqida ma'lumotlar mavjud[13].

Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Imperatorlik Sharqshunoslik jamiyati Rossiya imperiyasi Moliya vazirligining tashabbusi va tasdig'i bilan 1900 yil 29 fevralda ta'sis etilgan. 1904 yil 27 noyabr kungi yig'ilish bayonnomasida Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limining tashkil etilganidan keyingi 3 yillik faoliyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu hisobotda Toshkentning katta yoshlilar uchun ochilgan kechki kurslarida rus tilini o'rganish samara berganligi ta'kidlangan. Ammo bo'lim ruslar orasida ham sharq tillarini o'rgatgan.

Mahalliy tillarni o'rganish masalasi mintaqaning harbiy muassasalariga ham, fuqarolik institutlariga ham tegishli bo'lgan. Shu bilan birga boshqa muassasalarga ham mahalliy tillarni o'rganish majburiy qilib belgilangan. Shu munosabat bilan o'quv xonalari ajratilgan, u yerda o'qituvchi

va o'quvchilarga xalaqit bermagan holda ba'zan harbiy majlislar ham bo'lib turgan.

Yig'ilishda bo'lim a'zolarining kam sonli ekanligi aytib o'tilib, Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi taqdiri bilan qiziquvchi ko'ngillilar va hudud rahbarlari keyingi umumiy yig'ilishga taklif etilgan[14].

Yig'ilish bayonoma hujjatida qayd etilishicha, kengash a'zosi Saidkarim Saidazimboyev mahalliy maktablarda rus tilini yaxshi o'rgangan o'quvchilarning ko'pligini aytib, o'qishni davom ettirishlari uchun o'rta o'quv yurti yo'qligini bildirgan. Kengash bu bayonotni ma'qullagan, lekin mahalliy aholi uchun o'sha paytgacha qilingan ishlardan qoniqish kerakligini ta'kidlagan[15].

Yuqorida keltirilgan yig'ilish ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, jamiyat asosiy e'tiborini tub aholi uchun rus tilini o'rgatishga, hamda o'lka vakillaridan jamiyat uchun nafi tegadigan a'zolari ko'paytirishga harakat qilgan.

Imperatorlik sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi (I-361) fondining 7, 9 va 10-yig'majildlarida o'lkadagi imperiya manfaatlarini uchun xizmat qilgan til kurslari faoliyati hamda jamiyat tomonidan bajarilgan ishlar natijalari aks etgan ma'lumotlar mavjud. Xususan, ushbu fondning 7-yig'majildida N.P. Ostroumovning Rossiya uchun o'lkadagi musulmon aholining madrasa ta'limi, sharq tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi keltirilgan. Aynan, shu fondning 9-yig'majildida islomshunoslik bo'yicha Toshkent harbiy yig'inida o'qilgan ma'ruzalar saqlanib qolgan[16].

